

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tizim korxonalarida
2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

Kon-geologiya vazirligida 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi hamda mazkur hujjat doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hisobot davrida mazkur Dasturdagi 70 ta tadbirlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilgan, 1 ta tadbir (*Kon-geologiya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumini imzolash*) 2025-yilgi Dasturiga o‘tkazilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir bevosita Kon-geologiya vaziri tomonidan 2 ta tadbir o‘tkazildi va unda tizim korxonalarida mazkur sohadagi kamchiliklar qayd etildi va tegishli topshiriqlar berildi. Jumladan, 2024-yil 6-yanvar va 25-dekabr kunlari bevosita Vazir boshchiligida barcha tarmoq korxonalarining rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirokida tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid masalalar ko‘rib chiqilgan (bayon №01-24 va №36-24).

Shu bilan birga, 2024-yil 9-mart kuni “Xalq so‘zi” gazetasining 51-soni, 3-sahifasida Kon-geologiya vaziri B. Islamovning “Aniq maqsad, puxta rejalar va faol investitsiya siyosati” mavzusidagi maqolasida sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma’lumotlari chop etilgan.

Bundan tashqari, har chorakda vazir tomonidan Kon-geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot ko‘rib chiqilib, tizim korxonalarining rahbarlariga tegishli topshirig‘i mavjud.

Hisobot davrida vazirning birinchi o‘rinbosari O. Nasritdinxodjayev Vazirlikning Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida o‘z chiqishlari (06-24-son bayon), vazir o‘rinbosarlari A. Kadirxodjayev va O‘. Yusupovlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi va tizimda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida chiqishlari (30-24-son va 31-24-son bayonlar) hamda vazir maslahatchisi M. Pirojkov tomonidan 5 ta tadbirlar davomida mazkur sohadagi amalga oshirilayotgan ishlar qayd etilishi bilan birga, xodimlarning mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga doir seminarlar o‘tkazilgan (05-24-, 07-24-, 12-24-, 22-24-, 26-24-sonli bayonlar).

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefoni va telegram bot kanali to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizim korxonalarining axborot resurslari orqali ommalashtrildi, rasmiy veb saytida esa “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifasida sohaga oid me‘yoriy hujjatlar va yangiliklar yoritilmoqda.

Bugungi kunda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarini — “Olmaliq KMK”, “Navoiy KMK”, “O‘zbekgeofizika”, “O‘zbek geologiya qidruvi”, “O‘zmetkombinat”, “O‘zbekko‘mir”, “Sharg‘unko‘mir” AJlari, “Navoiyuran” DK, “O‘zbekgidrogeologiya”, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi”, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti”, “Geologiya fanlar universiteti”, “Mineral resurslar instituti”, “Geologiya va geofizika instituti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi instituti” davlat

muassasalarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va jami 40 ga yaqin mas’ul xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Hisobot davrida “Navoiy KMK”, “O‘zmetkombinat” va “O‘zbekgeofizika” AJning “Yakkabog‘ va Buxoro geofizika ekspeditsiyalari”ning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 va O‘zDST ISO 37001:2019 xalqaro va milliy muvofiqlik sertifikatlarini qo‘lga kiritdi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosat va tartib-taomillar.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar, ya’ni “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati”, “Sovg‘a berish va qabul qilish siyosati” kabi sohaga oid 20 dan ortiq ichki me‘yoriy hujjatlar qonunchilikdagi o‘zgarishlarini inobatga olgan holda o‘zgartirildi va 2024-yil 14-noyabrda 144-son buyruq bilan qayta tasdiqlandi. Mazkur ichki me‘yoriy hujjatlar To‘plam sifatida nashr qilindi va o‘rnatilgan tartibda barcha xodimlarga elektron va qog‘oz shaklida tarqatildi va tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hamkorlar uchun yuqoridagi barcha ichki me‘yoriy hujjatlar elektron tarzda axborot olish uchun Vazirlikning rasmiy-veb saytida joylashtirildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tartib-taomillarini tadbiiq etish hamda **koorupsiyaviy xavf-xatari “yuqori” bo‘lgan funksiyalarni pasaytirish va korrupsiogen omillarni tiyib turishga qaratilgan quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar** qabul qilindi:

- 2024-yil 26-yanvar kuni 7^A-son buyruq bilan “Kon-geologiya vazirligining ekspert-tahlil guruhini rag‘batlantirish tartibi”;

- 2024-yil 29-yanvar kuni 11-son buyruq bilan “Geolgiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirish tartibi”;

- 2024-yil 23-fevral kuni 18-son buyruq bilan “Byudjet mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi hamda daromadlarining to‘liqligi ustidan monitoring va nazorat tizimini o‘rnatish to‘g‘risida”;

- 2024-yil 27-mart kuni 35-son buyruq bilan “Kon-geologiya vazirligida “Kadrlar siyosati”ni hamda “Inson resurslarini tahlil qilish va rejalashtirish bo‘yicha Yo‘riqnoma”;

- 2024-yil 10-aprel kuni “Kon-geologiya vazirligining Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish yillik Davlat dasturi doirasida loyihalar kesimida bajarilgan geologiya-qidiruv ishlari dalolatnomalarini to‘lovga qabul qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma”;

- 2024-yil 6-iyun kuni 67-son buyruq bilan “Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatining ilmiy darajaga ega xodimlariga qo‘shimcha haq to‘lash (ustama) tartibi to‘g‘risida Nizom”;

- 2024-yil 10-iyul kuni 77-son buyruq bilan “Qurilish ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish va omborxonalar ishlarini tashkil etish bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”;

- 2024-yil 16-iyun kuni 80-son buyruq bilan “Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatida to‘lovlarni amalga oshirish va hujjatlarni aylanishi to‘g‘risida Nizom”;

- 2024-yil 18-iyul kuni 85-son buyruq bilan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonun ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”;

- 2024-yil 11-noyabr kuni 142-son buyruq bilan “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi markaziy apparati va qo‘yi tashkilotlardagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi nizom”;

- 2024-yil 15-avgust kuni 100-son buyrug‘i bilan “Yuqori” va “O‘rta” xavf-xatarga ega vazirlik tuzilmalarning Nizomi va xodimlarni lavozim Yo‘riqnomasi;

- 2024-yil 29-avgust kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki audit o‘tkazish to‘g‘risida” 105-sonli buyruq tasdiqlangan.

Shu bilan birga, Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida 2024-yilning 29-avgust kuni 105-son buyruq asosida Vazirlik tarkibidagi 2 ta departament, 7 ta boshqarma va 35 ta bo‘limlar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar, xususan ular tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar va vazifalar bajarilishida yuzaga keladigan korrupsiogen omillar hamda sohada qabul qilingan qonunchilik va ichki me‘yoriy hujjatlar to‘g‘risida xabardorlik bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi.

Bundan tashqari, “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Sovg‘a berish va qabul qilish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” va “Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati” talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida prezentatsiya materiallari hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi” Qonun talablarini yorituvchi bukletlar va videorolik tayyorlandi.

2. Tizimda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida Vazirlikning barcha xodimlar tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi ijro appartining jami **152 nafar** (boshqaruv va texnik) xodimlari 2024-yil uchun manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shaklini (deklaratsiya) to‘ldirishdi.

2024-yilning 13-may kuni vazirlikda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish hamda oldini olish maqsadida 61-son buyrug‘i qabul qilindi.

Tizim osti korxonalarini – “Olmaliq KMK”, “Navoiy KMK”, “O‘zbekgeofizika”, “O‘zbek geologiya qidruv”, “O‘zmetkombinat” “O‘zbekko‘mir”, “Sharg‘unko‘mir” AJlari “Regionalgeologiya”, “Navoiyuran” DK, “O‘zbekgidrogeologiya”, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi”, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti”, “Geologiya fanlar universiteti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Mineral resurslar instituti”, “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” davlat muassasalarida hamda boshqa tizimosti korxonalarini xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida deklaratsiyalar to‘ldirilgan.

Bundan tashqari, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida 2024-yilning 4-iyul kuni vazirlikda seminar tashkil etildi va xodimlar o‘rtasida tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida “Olmaliq KMK”, “Navoiy KMK” va “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ hamda “Geologiya fanlar universiteti”da ham seminarlar o‘tkazildi.

3. Kon-geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash natijalari.

Kon-geologiya vazirligida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik ijro apparatidagi barcha lavozimlar va funksiyalar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida Kon-geologiya vazirligida korrupsiogen xavf-xatarlar xaritasi tuzildi.

Unga ko‘ra, Kon-geologiya vazirligining 25 ta funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 6 tasida korrupsiya xavf-xatari “Yuqori” bo‘lgan lavozimlar, 16 tasida “O‘rta”, 3 tasida “Past” daraja qayd etilgan.

Bu yo‘nalishdagi ishlar alohida Ish reja asosida davom ettirilishi begilandi va Vazirlikning korrupsiogen xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqildi. Mazkur jarayonlarni barchasi “E-anticor.uz” elektron platformasiga yuklangan.

Bundan tashqari, 2024-yilning 29-avgust kunidagi 105-son buyruq asosida Vazirlikning muhiti, manfaatdor tomonlarning talablari, xavf-xatarlar va imkoniyatlari, korrupsiyaga qarshi menejment tizimiga manfaatdor tomonlarning ta’siri, korrupsiyaviy xavf-xatarlari baholangan.

Tizim osti korxonalarini – “Navoiy KMK”, “Olmaliq KMK”, “O‘zmetkombinat”, “O‘zbekko‘mir”, “Sharg‘unko‘mir”, “O‘zbek geologiya qidiruv”, “O‘zbekgeofizika” AJlari, “O‘zbekgidrogeologiya”, “Yer qa’ridan foydalanish markazi”, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti”, “Geologiya fanlar universiteti”, “Mineral resurslar instituti”, “Geologiya va geofizika instituti”, “Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi instituti”, “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti” DMLarida korrupsiogen xavf-xatarlarni baholash jarayoni amalga oshirilishi natijasida jami 1387 ta funksiyalar baholanib, shundan 150 tasi “yuqori”, 225 tasi “o‘rta” va 1012 tasi “past” daraja qayd etilgan.

Hozirgi kunda yuqoridagi tizimosti korxonalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqilib, ijroga qaratilgan.

4. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida xaridlarni tashkil etish sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan.

Kon-geologiya vazirligi tomonidan 2024-yilning 31-dekabr holatiga jami **8,3 mlrd.** so‘mlik jami **392 ta** shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida rasmiylashtirilgan (2023-yil shu davrda **13,9 mlrd.** so‘mlik jami **263 ta** shartnomalar rasmiylashtirilgan).

Shulardan **261 ta** xarid (2063,7 mln. so‘m) elektron do‘kondan, **39 ta** (684,4 mln. so‘m) kooperatsiya portali orqali, **92 ta** (5562,5 mln. so‘m) shartnomalar yagona yetkazib beruvchilar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida imzolangan.

Vazirlik va 20 ta tizimosti korxonalarini tomonidan 2024-yilning 31-dekabr holatiga jami **51 291 ta** shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida tuzilgan.

Shundan, to‘g‘ridan to‘g‘ri yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar **2974 tani** tashkil etadi va ularga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha ogohlantirish bandlelari kiritilmoqda. Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni tashabbuskor tomonidan kontragentlarni o‘rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirish bo‘yicha ishlar **25 127 ta** shartnomalarda amalga oshirilgan va tegishli xulosalar taqdim etilgan.

Hisobot davrida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida korxonalar moliyaviy mablag‘lari iqtisod qilinishi bilan birga, ularning samarasiz ishlatilishi oldi olingan.

5. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim osti korxonalarida ishga qabul qilish jarayoni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi va mehnat munosabatlarida amaldagi qonunchilik buzilish holatlari.

Mazkur yo‘nalishda korrupsiogen omillarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik bo‘sh o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar doimiy ravishda rasmiy veb-saytga va Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining “vacancy.uz” saytida berib borilmoqda. Hisobot davrida 11 ta lavozimga fuqarolarni ishga olish ochiq tanlov va “Argos” tizimi orqali test sinovlari amalga oshirilgan hamda o‘tkazilgan sinov tadbirlarini Internet orqali real vaqt rejimida kuzatish ta‘minlangan.

Shu bilan birga, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomalar” asosida **11 ta** nomzod o‘rganilgan va tegishli xulosalar berilgan.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi siyosati talablari asosida xodimlarning mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ogohlantirish bandlelari kiritilmoqda va qayta imzolanmoqda.

Mehnat munosabatlarida qonun buzilish holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan murojaatlarni o‘rganish maqsadida hisobot davrida vazirlik tomonidan **3 ta** xizmat surishtiruvini o‘tkazilgan.

Hisobot davrida tizim osti korxonalarini tomonidan jami **531 ta** xizmat surishtiruvlari o‘tkazilgan. Mazkur tadbirlar natijasida tizimosti korxonalarida aniqlangan holatlar yuzasidan huquq-tartibot organlariga jami **220 ta** hujjatlar to‘plami taqdim etilgan, ular tomonidan ichki me‘yoriy hujjatlar talablarini buzgan tizimosti korxonalarining **502 ta** xodimiga intizomiy jazo qo‘llanilgan va **90 ta** xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilingan.

Xizmat tekshiruvini natijasida aniqlangan kamchiliklarni keyingi davrlarda takrorlanishini oldini olish maqsadida har bir tizim tashkiloti tomonidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va profilaktik tadbirlar o‘tkazilgan.

6. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq vazirlik va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligi yuzasidan jami 11 ta monitoring tadbirlari o‘tkazilgan.

Tizimosti korxonalarini bilan o‘zaro hamkorlik qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni tahlil qilish hamda sohaga oid ichki me‘yoriy hujjatlarni tatbiq etish va tarmoq korxonalaridagi ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida 2024-yilda “O‘zbekgidrogeologiya”, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” DM, “Navoiyuran” DK, “O‘zmetkombinat”, “O‘zbek geologiya qidiruv”, “O‘zbekgeofizika” AJ va Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi monitoring o‘tkazildi. Natijasi bo‘yicha tegishli takliflar va amaliy yordam ko‘rsatilgan.

Kyulgusi davrda takrorlanmasligi uchun mas‘ul xodimlarga intizomiy jazo qo‘llanildi va mazkur sohada ichki me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solindi.

7. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipini shakllantirish maqsadida o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar va mazkur sohada malaka oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tasdiqlangan Dasturga muvofiq Vazirlikning “Korrupsiyaga qarshi siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom”, “Sovg‘alar olish va berish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida tushuntirish-profilaktik tadbirlari o‘tkazildi.

Vazirlik xodimlariga korrupsiya tushunchasi, mazkur sohadagi qonunchilik talablari, korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yetkazish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini doimiy ravishda yuksaltirish maqsadida 2024-yilning 4-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va 22-noyabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas‘ul xodimlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida Vazirlik binosida seminarlar o‘tkazilgan.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi tomonidan “O‘zbekgidirogeologiya” DM, “Olmaliq KMK”, “Navoiy KMK” va “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ hamda “Geologiya fanlar universiteti”da sohaga oid seminarlar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, 2024 yilning iyun oyida “Tog‘-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti” DMda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilgan holda **85 nafar** vazirlik xodimlari “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati” mavzusidagi seminar o‘tkazildi va o‘quv kursi natijasi bo‘yicha tegishli sertifikatlar olindi.

Shu bilan birga, 2024-yilning 15-17-iyul kunlari Kon-geologiya vazirligi va 10 ta tizimosti korxonalarida o‘z funksiya va vazifalarini bajarishda yuqori

korrupsiogen xavf-xatari mavjud bo'lgan kadrlar bilan ishlash bo'linmalarining 40 nafar xodimlari "Inson resurslarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusidagi maxsus o'quv seminar o'tkazildi va o'quv kursi natijasi bo'yicha tegishli sertifikatlar olindi.

Bundan tashqari, joriy yilning 23-26-sentyabr kunlari "CERT Academy Group" xalqaro kompaniyasi mutaxassislarini jalb etgan holda vazirlikda o'z funktsiya va vazifalarini bajarishda yuqori korrupsiogen xavf-xatari mavjud bo'lgan 15 nafar va 5 nafar tizimosti korxonalari Komplayens xizmati xodimlari ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida maxsus o'quv kurslarida o'qitildi va tegishli sertifikatlar olindi.

Hisobot davrida Vazirlik va 20 ta tizim korxonalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida Ichki nazorat bo'linmalari xodimlari tomonidan jami **458 ta** tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori, 7.1 bandi talablariga muvofiq Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 118 nafar xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni baholash uchun "test.adliya.uz" sayti orqali muvaffaqiyatli onlayn test sinovlari topshirishdi.

Bundan tashqari, 2024-yilning noyabr oyida xodimlarida korrupsiyaga oid bilimlarini baholash maqsadida test sinovlari o'tkazildi va unda Vazirlikning 84 nafar xodimlari test sinovlarida qatnashdi. Natijada Korrupsiya tushunchasi to'g'risida ishtirokchilarning 81%, Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida — 75%, Vazirlikda sovg'a olish tartib-taomili to'g'risida — 76%, Sohaga ichki me'yoriy hujjatlar bilan tanishganligi — 88%, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik hujjatlaridan xabardorlik to'g'risida — 75%, Xodim korrupsiya holatlariga duch kelganda xabar berish tartibi to'g'risida — 95% xodimlar ma'lumotga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Test savollari natijasida aniqlangan ko'rsatkichlar asosida xodimlarning keyingi o'quv seminarlarida tushuntirish profilaktik tadbirlar yo'nalishi belgilab olindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2024-yilning may oyida "Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyani oldini olish va komplayens-nazorat tizimini samarali joriy etish" mavzusida o'tkazilgan seminarda Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i qatnashgan va tegishli sertifikat olingan.

2024-yilning oktyabr oyida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi (Vena)da "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqaruv tizimi" mavzusidagi o'quv kursida qatnashildi va tegishli xalqaro sertifikat olindi.

8. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi rasmiy saytida uchta (*o'zbek, ingliz, rus*) tillarida korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan va bu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda. Jumladan, hisobot

davrida tizim korxonalari tomonidan ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali jami **533 ta** sohaga oid materiallar joylashtirilgan.

Xususan, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi 18 ta, Geologiya fanlar universiteti – 83 ta, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti – 67 ta, “Olmaliq KMK” AJ – 59 ta, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ – 31 ta, “O‘zmetkombinat” AJ – 51 ta, “Navoiy KMK” – 29 ta, “O‘zbekgidrogeologiya” DM – 25 ta, ““O‘zbekko‘mir” – 21 ta, Mineral resurslar instituti” DM 19 ta, “Sharg‘unko‘mir” AJ – 17 ta, “Yer qa‘ridan foydalanish markazi” – 16 ta, “O‘zbekgeofizika” AJ, “Geologiya va geofizika instituti” va “Navoiyuran” DK – 15 tadan, “Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi instituti” DM – 14 ta, “Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” DM 10 ta materiallarni joylashtirgan.

Bundan tashqari, 2024-yil 9-mart kuni “Xalq so‘zi” gazetasining 51-soni, 3-sahifasida Kon-geologiya vaziri B. Islamovning “Aniq maqsad, puxta rejalar va faol investitsiya siyosati” mavzusidagi maqolasida sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma‘lumotlari chop etilgan.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 10 dan ortiq bannerlar, ko‘rgazmali stendlar va 5 ta videorolik tayyorlandi. Mazkur materiallarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida axborot materiallari va ishonch telefoni va elektron pochta to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda hisobot tayyorlanib, “Ye-anticor.uz” platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda yozma ravishda Hisob Palatasiga yuborilmoqda.

Anonim so‘rovnoma.

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimosti korxonalarida korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha anonim so‘rov o‘tkazildi.

Shu maqsadda 10 banddan iborat savollar tuzilib, jamoatchilikning Tog‘-kon sanoati va geologiya korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan savollardan iborat “Jamoatchilikning konchilik va geologiya korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan so‘rovnoma” vazirlikning telegram kanaliga (<https://t.me/uzdavgeolcom/18103>) joylashtirildi.

O‘tkazilgan anonim so‘rovnomada 100 dan ortiq obunachilar qatnashdi. Natijalarga ko‘ra, so‘rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning 41,3% xodimlar bilan ishlash bo‘limi tuzilmalarida, 25,7% xaridlar bo‘limida, 11,1% yer qa‘ridan foydalanuvchilarni nazorat qilish bo‘limlarida, 21,9% boshqa tuzilmalarda korrupsiogen omillar borligi va mazkur sohalarda islohotlar olib borish lozimligini qayd etishgan.

Konchilik va geologiya korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holatini so‘rovnomada qatnashganlarning 38,8 % ijobiy baholab,

30,7 % korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natija berayotganligini qayd etgan.

So'rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning 45,6% tog'-kon sanoati va geologiya korxonalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini kuchaytirish lozimligini qayd etishgan.

Shu bilan birga, "Sizningcha, qanday chora-tadbirlar Konchilik va geologiya sohasi korxonalarida korrupsion holatlar kamayishiga olib keladi?" degan savolga ishtirokchilar tomonidan "Sohani raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish, xodimlar maoshini oshirish, ta'minot, moliya va buxgalteriya sohasida ishlagan xodimlarni har 5 yilda rotatsiya qilish, OAVda ochiq hisobot berib borish, shaffoflikni ta'minlash" kabi takliflar tushgan.

Anonim so'rovnoma natijasi bo'yicha 2025-yil davomida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

9. Tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Vazirlik va tizimdagi korxonalarda aniqlangan korrupsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Masofaviy audit" hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Monitoring portali" avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali davlat xaridlari bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilib borish;

"Geomonitoring" axborot tizimini 2025-yilda ishga tushirilishi natijasida yer qa'ridan foydalanuvchilarni, geologiya qidiruv ishlarini, davlat xaridlarini doimiy monitoring qilib borish;

Vazirlik xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan, "Odob-axloq kodeksi" talablariga rioya etilishini o'rganish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tizimli tahlil o'tkazish;

sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni tatbiq etish hamda tarmoq korxonalaridagi komplayens xizmati xodimlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga taalluqli murojaatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar samaradorligini har chorakda baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.